

KRAXMAL ASOSIDA BIOPARCHALANUVCHI GIDROGELLAR VA PLYONKALAR OLISH

Ungarova Sohiba Isomiddin qizi

Toshkent davlat texnika universitetining magistratura bosqichi talabasi
sakhibaungarova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kraxmal asosida bioparchalanuvchi gidrogellar va pylonkalar olish haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Polimerlar, sanoat, kimyoviy modifikatsiyalash, xomashyo, parchalanish, pylonka.*

Tabiiy polimerlar asosida xalq xo'jaligi, sanoat, iste'mol va boshqa sohalar uchun mahsulot va materiallar olishga hozirda butun dunyoda e'tibor katta. Chunki tabiiy polimerlarning inson salomatligi va atrof-muhitga zararli ta'siri kam bo'lib, ular vaqt o'tishi bilan tabiiy sharoitda bezarar moddalarga parchalanadi. Bezarar va har yili zahirasi qayta tiklanuvchi homashyolardan olinadigan katta ko'p tonnali tabiiy polimerlardan biri bu kraxmaldir. Ushbu polimer tarkibida turli reaksiyon qobiliyatli funksional guruhlarning mavjudligi esa uni kimyoviy modifikatsiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Mamlakatimiz ham kraxmal olish mumkin bo'lган o'simlik homashyolariga boy hisoblanadi. Bioparchalanuvchi pylonkaning ushbu shakli 90 kun ichida kamida 90 % parchalanadi, ammo ushbu turdag'i pylonkadan foydalangan holda ishlab chiqarilgan haqiqiy mahsulotlar bunga javob bermasligi mumkin.

Kraxmalli polimerlarga quyidagilar misol bo'ladi:

- Polikaprolakton (PCL)
- Polivinil spirt (PVA)
- Polilaktik kislota (PLA)

Ushbu turdag'i pylonkalarning biologik parchalanishi issiqlik, namlik va shamollatishni talab qiladi, shuning uchun u atrof-muhitga chiqarilganda tezda buzilmaydi.

Xozirgi vaqtida O'zbekistonda tarkibida sanoat miqiyosida kraxmal ajratib olish mumkin bo'lган o'simliklarga kartoshka, jo'xori, guruch, no'xot, javdar, arpa va bo'g'doyni kiritish mumkin. Keltirilgan xom ashyolardan kraxmal ajratib olishning iqtisodiy taxlilari shuni ko'rsatadiki, jo'xoridan kraxmal ajratib olish iqtisodiyoti eng maqbul hisoblanadi. Shuning uchun ham tadqiqot ishida Na-KMK sintez qilish uchun maxalliy jo'xori navlaridan (O'zbekiston 601 YeSV, O'zbekiston 300 MV) ajratib olingan kraxmal namunalaridan foydalanilganю

Kraxmal asosidagi pylonkaning ijobiylari va salbiy tomonlari

Ijobiy tomonlari:

- U sanoat muhitida parchalanadi.
- Xomashyoning kamaytirilgan tarkibi.

Kamchiliklari:

- Biologik parchalanmaydigan pylonkaga qaraganda qimmatroq

- Kraxmal manbai muammoli bo'lishi mumkin (oziq-ovqat bilan raqobat, bioplastikalar uchun ekinlarni yetishtirish uchun o'rmonlarni yo'q qilish)
- Ishlab chiqarish jarayonida yoqilg'ilar yoqiladi va CO₂ hosil bo'ladi.
- Qo'shimcha moddalarga qaraganda mexanik mustahkamligi pastroq
- Ko'pincha yuqori tezlikda ishlaydigan mashinalarda ishlatish uchun yetarli darajada kuchli emas. Yopiq sistemada parchalanish kamida 6 oy davom etadi.
- CO₂ ni aerob sharoitida va metanni anaerob sharoitida chiqaradi.
- Yaroqlilik muddati cheklangan. Saqlash shartlari bajarilishi kerak.
- Qayta ishlash uchun boshqa plastmassalar bilan aralashtirish qayta ishlash jarayonini buzadi.

Parda (plenka) olish uchun Na-KMK ning 10 % li eritmasi (suv bilan) tayyorlab olindi. So'ng eritma 1 jinsli bo'lguncha ma'lum muddat mexanik aralashtrigich yordamida aralashtirib turildi. Hosil bo'lgan eritmaga har hil miqdorda plastifikator (glitserin) qo'shildi hamda har birining hosil qilgan pardalari (plenka) o'rganildi.. Parda (plenka) hosil qilish uchun asosiy maxsulot II va III valentlik metallning suvda eruvchan tuzlari hisoblanadi. Ular ma'lum miqdor va konsentratsiyada tayyorlanib, hosil bo'lgan eritmaga 1:100 (Na-KMK eritmasi: metall tuzining eritmasi) nisbatda qo'shiladi va ma'lum muddatga , metall ionlari Na metali bilan almashinib olishi uchun qoldiriladi. Ushbu ishda Al, Zn, Cu, Ni metallarining suvda eruvchan tuzlaridan foydalanildi va har birining hosil qilgan pardalari (plenkalari) o'rganildi. Metall tuzlarining eritmalari Na-KMK eritmasiga qo'shilganda iviqlanish hodisasi ro'y bera boshladi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, Na-KMK suvda eriydi, ammo H-KMK erimaydi. Sintez qilingan pardalar (plonkalar) tarkibida ma'lum miqdorda Na tuzlari bo'ladi, chunki uning hamma qismi II yoki III valentli metal tuzlari bilan to'liq almashinmaydi. Shuning uchun eritma to'liq tayyorlangandan so'ng, Na-KMK eritmasi kislotali muhitga o'tqazilib, H formaga keltirib olindi. Bu esa parda (plenka) ning suvda eruvchanligini yo'qotadi. H formaga o'tkazilgan eritma maxsus shisha idishga quyilib, quritish pechiga ma'lum muddatga parda (plenka)ning namligi yoqolib to'liq quriguncha qo'yildi. Qurib tayyor bo'lgan pardalar (plenkalari) 96% li spirtda bir necha marotaba yuvildi. Bu usuldan foydalanib pardalar (plenkalari) ning yopishqoqligi yoqotildi hamda shaffof holga o'tqazildi. Qanday metal tuzi qo'shilganligi va plastifikatorni qanday miqdorda qo'shilganligiga qarab har hil mustahkamlikdagi bioparchalanadigan pardalar (plenkalari) hosil bo'lishi aniqlandi.

Bioparchalanuvchi plyonkalarning qo'llanilish sohalari. Yuk ko'tarish sumkalari, axlat qutilari, sabzavot paketlari, oziq-ovqat plyonkalari, qishloq xo'jaligi plyonkalari, pochta plyonkalari. Biroq, ushbu plyonkalar hali ham neftga asoslangan plastik plyonkalarga nisbatan juda cheklangan. Mikrobial hujumni yengillashtirish uchun oksidlovchi darajasida parchalanadigan yoki ko'proq gidrofil holga keltirish uchun oddiy polimerlarga qo'shimchalar qo'shilishi mumkin. Ushbu plyonkalar odatdagи polimerlarga qo'shimchalarni qo'shib oksidlovchi va keyinchalik biologik degradasiya mexanizmlarini ta'minlash orqali tayyorlanadi. Bu odatda atrof muhitda kislород ta'sirida 6 oydan 1 yilgacha davom etadi. Parchalanish ikki bosqichli jarayondir. Birinchidan, plastmassa kislород bilan reaksiya orqali (yorug'lik, issiqlik yoki boshqa ta'sir jarayonni tezlashtiradi) gidrofil past molekulalar

og'irlikdagi materiallarga aylanadi, so'ngra bu kichik oksidlangan molekulalar biologik parchalanadi, ya'ni tabiiy mikroorganizmlar, karbonat angidrid, suv va biomassa, u yog'ochli o'simlik moddalarining parchalanishiga o'xshaydi, bu yerda lignin parchalanib, tuproq sifatini yaxshilaydigan gumus hosil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мишурина О. А., Муллина Э.Р. Способы переработки и химической модификации целлюлозы. Магнитогорск : Магнитогорский государственный технический университет им. Г.И. Носова, 2018. 245 р.
2. Назаров В.Г. Поверхностная модификация полимеров. Монография. Москва: МГУП, 2008. 474 р.
3. Keeling, P. L., & Myers, A. M. (2010). Biochemistry and Genetics of Starch Synthesis. Annual Review of Food Science and Technology, 1(1), p.271–303.
4. ShantaPokhrel “A review on introduction and applications of starch and its biodegradable polymers “ 2015.
5. Ozdemir, M., Floros, J.D., 2004. Active food packaging technologies. Critical Reviews in Food Science and Nurtition, 44, 185-193. Doi: 10.1080/10408690490441578